Hozirgi zamon xalqaro huquqi sifat jihatidan rivojlanib borayotgan voqelik sifatida qabul qilinadi. Xalqaro huquq doirasida yangi tarmoqlar va institutlar vujudga kelmoqda, mavjudlari yiriklashib bormoqda. A.X. Abashidze va I.A. Chistoxodovlar fikricha: "Globallashib borayotgan dunyo hamda davlatlar va xalqlarning o'zaro bog'liqligi sharoitida zamonaviy diplomatiyaning xalqaro tashkilotlar darajasida jadallashishi va xalqaro tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama diplomatiyaning roli ortib borayotganligi kabi xususiyatlarni hisobga olish kerak..." [4]. Shuningdek, O. Koxnenko: "Xalqaro tashkilotlar hozirgi kunda o'z ahamiyatiga ega bo'lib, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, moliya-iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, fan, ta'lim va madaniyat, intellektual mulk, qishloq xo'jaligi, savdo, atrof-muhit va boshqa sohalarida o'z vazifalarini bajaradilar" [5], – deb ta'kidlagan

holda, xalqaro tashkilotlar faoliyati sohalarining kengayib borayotganligini qayd etgan bo'lsa, A.D.Guliyevning: "Hozirgi kunda xalqaro tashkilotlar xalqaro hayotda doimiy va juda muhim hodisaga aylandi, chunki hozirgi xalqaro munosabatlar ularda ko'p tomonlama diplomatiyaning roli ortib borayotganligi bilan ham xarakterlanadi. Ko'p tomonlama diplomatiya xalqaro hayotning BMT va boshqa universal xalqaro tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq ko'plab muhim jabhalarini qamrab oladi"[6], – degan asosli fikrlarini ham alohida ta'kidlash mumkin.

O'z navbatida, M.M.Maksudov ham: "Davlatlarning tub muammolarini yakka o'zi hal qila olmasliklari va diplomatiyaning an'anaviy (ikki tomonlama) shakllari bir necha va ko'p davlatlarning birgalikdagi harakatlarining samarali usullarini ishlab chiqishga qodir emasligining tan olinishi xalqaro tashkilotlar rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi" [7], – degan fikrni ilgari suradi.

Davlatlarning tub muammolarini yakka o'zi hal qila olmasliklari va diplomatiyaning an'anaviy (ikki tomonlama) shakllari bir necha va ko'p davlatlarning birgalikdagi harakatlarining samarali usullarini ishlab chiqishga qodir emasligining tan olinishi xalqaro tashkilotlar rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda xalqaro tashkilotlar xalqaro munosabatlarni rivojlantirish jarayonining ajralmas qismiga va ko'p tomonlama diplomatiyaning asosiy shakliga aylandi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar asosan huquqiy maydonda harakatlanadi va bunda asosiy tartibga soluvchi regulyator xalqaro huquq hisoblanadi, o'z navbatida, davlatlarning o'zaro munosabatlari diplomatik va konsullik huquqi bilan tartibga solinadi. Diplomatik va konsullik huquqi normalarining samaradorligi davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari hamda xalqaro munosabatlar ishtirokchilarining barqarorligi va teng huquqli munosabatlarini kafolatlaydi, ularning mutanosib hamkorligiga yordam beradi.

A.D.Guliyevning monografiyasida ta'kidlanganidek, an'anaviy ma'noda "diplomatik huquq" ("elchilik huquqi") atamasi odatda diplomatik munosabatlar o'rnatilgandan keyin suveren davlatlar o'rtasida almashiladigan diplomatik vakolatxonalarining maqomi va funksiyalarini tartibga soluvchi xalqaro huquq normalari deb ataladi. "Konsullik huquqi" atamasi esa shu bilan bog'liq bo'lib, konsullik muassasalarining maqomi va funksiyalarini tartibga soluvchi xalqaro huquq normalarini anglatadi. Biroq bu tushunchalar davlatlar va xalqaro tashkilotlarning tashqi munosabatlardagi barcha sohalarini qamrab ololmaydi hamda diplomatiyaning ushbu yangi shakli mavjud xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga tatbiq etiladi va ular doirasida o'tkaziladigan konferensiyalarda samarali bo'ladi. Faoliyatning ushbu turi xalqaro hukumatlararo tashkilotlar huzurida akkreditatsiyadan o'tadigan davlatlarning doimiy vakolatxonalari, "ad hoc" maxsus missiyalar, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning a'zo davlatlardagi yoki boshqa xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalari kabi yangi turdagi missiyalarni yaratishni taqozo etdi [8].

G.I. Udovenko quyidagilarni ta'kidlaganda mutlaq haqiqatni ifodalagan edi: "Zamonaviy sharoitda, avvalgi davrlarda bo'lganidek, suveren davlatlarning tashqi aloqa organlari diplomatiyaning asosiy subyektlari bo'lib qolmoqda. Bu esa xalqaro huquq doktrinasi va xalqaro munosabatlar amaliyotida, odatda, qabul qiluvchi davlatdagi diplomatik vakolatxonalarning faoliyati hamda davlatlarning xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi doimiy vakolatxonalari faoliyati o'rtasida farqning mavjudligini ko'rsatadi" [9].

Italiyalik huquqshunos R. Ago BMT Xalqaro huquq komissiyasi doirasida davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning diplomatik jihatlarini alohida ko'rib chiqish zarurligini tushuntirar ekan, ikkita asosiy sababni ko'rsatdi: 1) bu munosabatlarda xalqaro huquq subyektlari ishtirok etishi, tuzilishi va xarakteridagi farqlar ularga

nisbatan davlatlararo munosabatlardagi diplomatik huquqni oddiygina qo'llashni imkonsiz qiladi; 2) ushbu munosabatlar aslida ikki tomonlama emas, chunki xalqaro tashkilot xalqaro huquq subyektiga aylangan bo'lsa-da, o'z hududiga ega emasligi sababli, munosabatlarda uchinchi tomon sifatida – qabul qiluvchi davlatning kiritilishi alohida ahamiyat kasb etadi [10].

Shu munosabat bilan, adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, milliy xalqaro huquq fani davlatlarning xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi vakilligi bilan bog'liq jihatlariga yetarlicha e'tibor bermayapti, xalqaro konferensiyalar, maxsus missiyalar, delegatsiyalar va xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning davlatlardagi yoki boshqa xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi vakolatxonalari, shuningdek, xalqaro huquqning milliy doktrinasi sezilarli bo'shliq mavjud [11].

Material va metodlar

Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqining xalqaro huquq tizimidagi o'rnini tahlil qilishda bir qator ilmiy manbalar va huquqiy materiallar ishlatilgan. Tadqiqotda xalqaro huquqiy hujjatlar, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlarning nizomlari va konvensiyalariga tayanildi. Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquq doirasidagi faoliyatini ko'rsatadigan ilmiy adabiyotlar, o'zaro huquqiy kelishuvlar, davlatlararo va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar hamda zamonaviy diplomatik huquqning rivojlanishiga oid tadqiqotlar qo'llandi.

Mazkur tahlil jarayonida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar ilgari surildi.

Ushbu tadqiqot ishida qiyosiy tahlil, huquqiy tahlil, normativ hujjatlar tahlili, analitik metodlar, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, tizimlilik va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

XX asrning 70-yillaridan boshlab ba'zi olimlar xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi g'oyasini asosli ravishda targ'ib qila boshladilar. XXI asrda esa xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqini tan olish haqidagi nazariy yondashuvlar yanada mustahkamlandi.

I.I. Lukashuk [11], V.M. Repetskiy [12], A.D. Guliev [6; 8], L.D. Timchenko [13], V.I. Kuznetsov va B.R. Tuzmukhammedov [14], I.S. Iskevich va A.V. Podolskiy [15], T.D. Matveeva [16] kabi mualliflarning xalqaro huquq, diplomatik va konsullik huquqi hamda tashqi aloqalar huquqi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalari orqali xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqini tashqi aloqalar huquqi yoki diplomatik va konsullik huquqining alohida tarmog'i sifatida kiritib boshladilar.

Aytish joizki, adabiyotlarda diplomatiya ko'lami o'zgarishi va kengayishi "...xalqaro huquqning ushbu tarmog'iga tegishli yangi kichik tarmoqlarning shakllanishiga olib kelganligi" allaqachon ta'kidlangan [17; 18]. Masalan, A.D. Guliyev o'zining monografiyasida ushbu kichik tarmoqlarga quyidagilarni kiritadi: a) diplomatik huquq; b) konsullik huquqi; d) maxsus missiyalar huquqi; e) xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi [10, 192-b.].

Shuningdek, zamonaviy xalqaro huquqda ham xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining mustaqil tarmoq/kichik tarmoq sifatida tan olinishi kuchli va mustahkam pozitsiyaga ega ekanligini ta'kidlaymiz. So'nggi paytlarda O'zbekiston xalqaro huquq fanida ham xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining huquqiy mazmunini diplomatik va konsullik huquqida tarmoqlararo hodisa sifatida ochib berishga qaratilgan bir qator ilmiy nashrlar paydo bo'ldi [19].

Shu bilan birga, diplomatik va konsullik huquqining faqat "ikki tarmog'i" bor, degan fikrning tarqalganligini ham ta'kidlab o'tamiz. Biroq, biz bir qator xalqaro huquqshunoslarning [18] ushbu dalillarini ma'qullay olmaymiz, chunki diplomatik va konsullik huquqi

tizimi to'rtta kichik tarmoqni o'z ichiga oladi: diplomatik huquq, konsullik huquqi, maxsus missiyalar huquqi va xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi.

Ushbu kichik tarmoqlarning diplomatik va konsullik huquqi doirasida mustaqil bo'linmalarga bo'linishi ularning alohida manbalariga asoslanadi. Bizning fikrimizcha, diplomatik va konsullik huquqi doktrinasi bilan to'liq mos keladi va shuningdek, akademik X. Rahmonqulovning: "Xalqaro ommaviy-huquqiy xarakterga ega munosabatlar davlatlar o'rtasida, davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida hamda xalqaro tashkilotlarning o'zlari o'rtasida o'rnatilishi mumkin", – degan so'zlari bilan ham asoslanadi [20].

Ushbu yondashuv bir qator huquqshunoslarning fikrlariga ham mos keladi. Masalan, B.I. Nefyodov: "Xalqaro huquq bu mustaqil huquqiy tizim bilan ifodalanadigan huquqning bir turi. Uni tartibga solishning asosiy predmetida, subyektlar o'rtasidagi asosiy yondashuvlarda ma'lum tafovutlar mavjudligiga qaramay, umuman olganda, davlatlararo munosabatlar sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan davlatlar, xalqlar, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, davlatga xos tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar hisoblanadi", – deb ta'kidlaydi [21]. Shu asnda xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi faoliyatining legitimligi (qonuniy) isbotlangan.

Xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining shakllanishi BMT doirasida amalga oshirilayotgan izchil rivojlanish va kodifikatsiyalash jarayonida namoyon bo'ladi. BMT Nizomining 13-modda 1(a)-bandida: "Bosh Assambleya siyosiy sohadagi xalqaro hamkorlikka ko'maklashish va xalqaro huquqning tobora taraqqiy etishi va uning kodifikatsiyasini rag'batlantirish maqsadida tadqiqotlar uyushtiradi va tavsiyalar beradi", – deb ko'rsatilgan. Bosh Assambleya zudlik bilan ushbu qoidani hayotga tatbiq etishga kirishdi. 1946-yilda o'zining birinchi sessiyasida u xalqaro huquqni tobora taraqqiy ettirish va uning kodifikatsiyasi bo'yicha Qo'mitani ("O'n

yettilik qo'mitasi" nomi bilan mashhur) tuzdi, uning yig'ilishi 1947-yil may-iyun oylarida bo'lib o'tgan va Xalqaro huquq komissiyasini tuzishni tavsiya qilgan. Xalqaro huquq komissiyasi BMT Bosh Assambleyasining yordamchi organi hisoblanadi va uning maqsadi xalqaro huquqning izchil rivojlanishi va uning kodifikatsiyasini rag'batlantirishdir. Komissiya faoliyati Bosh Assambleyaning 1947-yil 21-noyabrda 174 (II) rezolyutsiyasining ilovasida keltirilgan Nizom (o'zgartirishlar kiritilgan) bilan tartibga solinadi.

Konseptual jihatdan, diplomatik va konsullik huquqi, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqini kodifikatsiyalash va izchil rivojlantirish jarayonining barcha bosqichlarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro huquq komissiyasi muhim rol o'ynagan. Aytib o'tish joizki, deyarli barcha shartnomaviy va konvensiyaviy hujjatlar, xususan, Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi (1961-yil 18-aprel), konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi (1963-yil 24-aprel) va Davlatlarning universal tusdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlaridagi vakilligi to'g'risidagi konvensiya (1975-yil 14-mart) aynan Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Biz o'rganayotgan obyekt doirasida yuzaga kelgan yangi jihatlarni tahlil qilgan holda, quyidagi xulosani bildirish mumkin: globalizatsiya davrida xalqaro huquq tizimida diplomatik va konsullik huquqi hamda xalqaro tashkilotlar huquqi doirasida yangi kichik tarmoq – davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning o'zaro munosabatlarini xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga soladigan xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi shakllangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shunga muvofiq, xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi xalqaro tashkilotlarning vakolatlari, funksiyalari va javobgarligiga taalluqli xalqaro huquqning o'ziga xos qoidalari va tamoyillari majmuini qamrab oladi ham-

da xalqaro tashkilotlarning o'z faoliyatlarini yuritishi va vazifalarini bajarishi uchun asos hisoblanadigan ustavlarida mustahkamlangan tamoyillarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u xalqaro tashkilotlar va davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish tartiblarini va xalqaro tashkilotlarning vakilligi bilan bog'liq masalalarni belgilaydi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi xalqaro munosabatlarning turli jihatlarini, jumladan, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi ekspert maslahatlashuvlari va xalqaro shartnomalar imzolash jarayonlarini tartibga soladi hamda u xalqaro tashkilotlarning a'zo davlatlar hududidagi diplomatik vakillarining daxlsizligini kafolatlaydi va ularning jinoyi ta'qibdan immunitetini ta'minlaydi.

Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni xalqaro-huquqiy tartibga solishga yangicha yondashuvni xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi doirasida belgilash ushbu sohadagi xalqaro huquq normalarini kodifikatsiya qilishga imkon yaratib, norma, prinsip va huquqiy munosabatlarning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi nafaqat umumiy xalqaro-huquqiy tizimda, balki O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq doktrinasida ham munosib o'rin egallab, uning mavjudligi va samaradorligi mustaqil tartibga solish predmeti, manbalari, subyektlari, normalari va tartibga solish usullari bilan asoslanadi.

Ushbu yondashuvning respublikamiz uchun dolzarbligi Markaziy Osiyoda asosiy geosiyosiy o'rinni egallagan O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining ko'p tomonlama vektorining mavjudligi bilan bog'liq. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sheriklik aloqalarini rivojlantirmoqda. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi yildan yilga yanada kengayib borayotgani sababli, xalqaro tash-

kilotlarning O'zbekistondagi vakolatxonalari va O'zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalari diplomatik maqomini yanada batafsilroq reglamentatsiya qilish masalasi dolzarb bo'lmoqda.

O'zbekiston BMT va uning Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, YUNESKO, FAO, XMT, Jahon banki, MAGATE kabi ixtisoslashgan muassasalari hamda boshqa ko'plab tashkilotlar faoliyatida o'z ishtirokini yanada faollashtirdi. 2018-yil noyabr oyida O'zbekiston Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT)ga to'laonli a'zo bo'ldi va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bilan samarali hamkorlik o'rnatdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) bilan hamkorligi izchil mustahkamlanib, yangi bosqichga ko'tarildi. 2019-yil 15-oktyabrda Boku sammitida O'zbekiston tashkilotga to'laonli a'zo sifatida qo'shildi. 2021-yilda tashkilot nomi Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidan Turkiy davlatlar tashkilotiga o'zgartirildi. 2022-yilda O'zbekiston TDTga raislik qilib, yuzdan ortiq tadbirlarga mezbonlik qildi va muhim tashabbuslar ilgari surildi. Samarqanddagi sammit esa raislik davridagi eng yorqin voqea sifatida e'tirof etildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik jadal rivojlanmoqda. 2021-yildan O'zbekiston GSP+ tizimi doirasida benefitsiar mamlakat sifatida Yevropa bozoriga bojsiz kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. 2024-yil dekabrda O'zbekiston hukumati ushbu imtiyozli rejimni yana 10 yilga uzaytirish va tovarlar ro'yxatini kengaytirish taklifi bilan chiqdi. Xususan, 2025-yil 4-aprel kuni o'tkazilgan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammiti ikki tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Unda energetika, ekologiya, transport, "yashil" iqtisod va raqamli rivojlanish sohalaridagi hamkorlikka doir tashabbuslar ilgari surildi.

Qayd etish lozimki, xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqiga bag'ishlangan tadqiqot-

lar, jumladan, davlatlarning xalqaro tashkilotlardagi hamda xalqaro tashkilotlarning davlatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalari, xalqaro konferensiyalardagi delegatsiyalarning maqomi, ularning ichki va tashqi huquqiy maqomi, daxlsizligi va imtiyozlari kabi masalalarni tartibga solishni talab etadi. Shu bois bu yo'nalishda chuqur ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlar o'tkazish, ularni huquqiy amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosalar

Zamonaviy xalqaro munosabatlarni tartibga solishning asosiy vositasi xalqaro huquq bo'lib, unga muvofiq xalqaro huquqning subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar diplomatik va konsullik huquqi doirasida tartibga solinadi.

Diplomatik va konsullik huquqi normalarining amaliy samaradorligi davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi aloqalarning barqarorligi va teng huquqliligini kafolatlaydi hamda ularning mutanosib hamkorligiga yordam beradi.

Hozirgi kunda diplomatik va konsullik huquqi tizimi quyidagi to'rtta kichik tarmoqning birligiga asoslanadi: diplomatik huquq, konsullik huquqi, maxsus missiyalar huquqi va xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi.

Globalashuv davrida xalqaro huquq tizimida diplomatik va konsullik huquqi hamda xalqaro tashkilotlar huquqi doirasida yangi kichik tarmoq – davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning o'zaro xalqaro munosabatlarini xalqaro-huquqiy tartibga soladigan xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi shakllandi. Ushbu

yangi yondashuvlarning xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi doirasida belgilanishi mazkur sohadagi manbalarni kodifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi, pirovardida esa ushbu sohadagi norma, prinsip va huquqiy munosabatlarning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi diplomatik va konsullik huquqining nisbatan yosh, biroq jadal rivojlanayotgan tarmog'i bo'lib, u tarmoqlararo xususiyatga ega. U xalqaro tashkilotlar huquqi va diplomatik-huquqiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etadi. Xalqaro tashkilotlar, ularning ta'sis organlari faoliyati, qarorlar qabul qilish mexanizmi va vakolatlar taqsimoti, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va a'zo davlatlar o'rtasida tuziladigan xalqaro shartnomalar, kelishuvlar va memorandumlar, xalqaro tashkilot mansabdor shaxslari va xodimlarining xizmat majburiyatlari, intizomiy va huquqiy javobgarlik masalalarini tartibga solishi sababli, ushbu institutlar xalqaro tashkilotlar huquqiga tegishlidir.

Xalqaro tashkilotlarda davlatlarning va xalqaro tashkilotlarning davlatlardagi vakolatxonalarining huquqiy maqomi, vakolatxonalar va ularning xodimlarining immunitet va imtiyozlari, xalqaro tashkilotlarning bosh qarorgohlarini joylashtirish to'g'risidagi kelishuvlar, ularning ichki qonunchilik bilan o'zaro munosabati, mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorligi, shuningdek, davlatlarning xalqaro tashkilotlardagi doimiy kuza-tuvchi missiyalari, xalqaro tashkilot organlari va konferensiyalardagi delegatsiyalar ishtirok etishiga oid masalalar diplomatik va konsullik huquqi doirasida tartibga solinadi.

REFERENCES

1. International Organization. Available at: <http://education.nationalgeographic.org/resource/international-organization/>
2. Samkharadze D.G. Rol' mezhdunarodnykh organizatsiy v sovremennykh mezhdunarodnykh otnosheniyakh [The role of international organizations in modern international relations]. *International Public and Private Law*, 2007, no. 2.

3. Tunkin G.I. Teoriya mezhdunarodnogo prava [Theory of International Law]. Moscow, 2000, p. 268.
4. Abashidze A.X., Chistokhodova I.A. Diplomaticeskoye i konsul'skoye pravo [Diplomatic and Consular Law]. Moscow, RUDN Publ., 2015, p. 260.
5. Kokhnenko O. K voprosu o statute prava mezhdunarodnykh organizatsiy v sisteme prava [On the status of the law of international organizations in the legal system]. *Journal of International Law and International Relations*, 2011, no. 3, p. 9.
6. Guliyev A.D. Mezhdunarodno-pravovoy kontekst vneshnikh snosheniy v usloviyakh globalizatsii [International legal context of foreign relations in the context of globalization]. National Aviation University Publ., 2011, pp. 609–634.
7. Maksudov M.M. Mezhdunarodno-pravovoy status postoyannykh predstavitel'stv gosudarstv pri mezhdunarodnykh organizatsiyakh universal'nogo kharaktera [International legal status of permanent missions of states to international organizations of a universal nature]. Moscow, RUDN University named after Patricia Lumumba Publ., 1984.
8. Guliyev A.D. Pravo zovnishnikh znosin [Foreign Relations Law]. NAU Publ., 2012, p. 488.
9. Xalqaro ommaviy huquq [Public International Law]. Tashkent, Lesson Publ., 2020, p. 740.
10. Ago R. International Organisations and their Functions in the Field of Internal Activities of States. *Nordic Journal of International law*, 1957, no. 27, pp. 1–18.
11. Lukashuk I.I. Mezhdunarodnoye pravo. Osobennaya chast [International Law. Special Part]. Moscow, Walters Kluwer Publ., 2010, p. 544.
12. Repetskiy V.M. Diplomaticeskoye i konsul'skoye pravo [Diplomatic and consular law]. Krasnodar, Knowledge Publ., 2006, p. 372.
13. Timchenko L.D. Mezhdunarodnoye pravo [International law]. Krasnodar, 2007.
14. Kuznetsov V.I., Tuzmukhamedov B.R. Mezhdunarodnoye pravo [International law]. Moscow, Norma: Infra-M Publ., 2010, p. 720.
15. Iskevich I.S., Podol'skiy A.V. Diplomaticeskoye i konsul'skoye pravo [Diplomatic and consular law]. Tambov, Federal State Budgetary Educational Institution of Higher Professional Education TSTU Publ., 2014, p. 136.
16. Matveeva T.D. Mezhdunarodnoye pravo [International law]. Moscow, Yurait Publ., 2022, pp. 5, 438.
17. Ganyushkin B.V. Diplomaticeskoye pravo mezhdunarodnykh organizatsiy. Pravovoe polozhenie predstaviteley gosudarstv pri mezhdunarodnykh organizatsiyakh, v ikh organakh i na mezhdunarodnykh konferentsiyakh [Diplomatic law of international organizations. Legal position of state representatives at international organizations, in their organs and at international conferences]. Moscow, International relations Publ., 1972, p. 192.
18. Pustovalova N.V. Mezhdunarodno-pravovye i natsionalno-pravovye aspekty konsul'skoy deyatel'nosti [International legal and national legal aspects of consular activities]. Abstract of thesis. Ph.D. legal Sci., Moscow, 2003.
19. Raxmanov Sh.N. Diplomaticeskoye pravo mejdunarodnykh organizatsiy: sovremennaya doktrina i praktika Respubliki Uzbekistan [Diplomatic Law of International Organizations: Modern Doctrine and Practice of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Baktria Publ., 2022, p. 224.
20. Rahmonqulov H. Huquq tizimi va uning sohalari [The legal system and its branches]. Tashkent, Institute of Philosophy and Law Publ., 2005, p. 3.
21. Nefyodov B.I. Katekhizis aspiranta kafedry mezhdunarodnogo prava [Catechism of a postgraduate student of the Department of International Law]. Moscow, MGIMO-University Publ., 2018.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 2-SON

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.